

**INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILARDA INGLIZ TILIDAGI  
TALAFFUZINI RIVOJLANTIRISHNING  
METODIK USLUBLARI**

*SamDCHTI Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi ,  
ingliz ll fakulteti talabasi Namozova Sevinch.*

*Email:namozovasevinch1@gmail.com*

*Ilmiy raxbar: Sh.O.Mamayoqubova*

*Email: mamayoqubovashahlo@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz tilining hozirgi vaqtda dolzarbli ,o'ziga xosligi va ingliz tilini endigina o'rganishni boshlagan o'quvchilarning ingliz tilidagi talaffuzini rivojlantirishning zamonaviy va metodik uslublari va shu uslublarni amalda qo'llash va shu orqali ularning ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish kabi mavzulardagi fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Ingliz tili ,talaffuz ,metodik uslublar, o'zaro muloqot , musiqalar tinglash, film tomosha qilish.

**TO DEVELOP ENGLISH PRONUNCIATION IN ENGLISH LANGUAGE**

**LEARNERS METHODICAL METHODS.**

*SamDCHTI Foreign language and literature  
, faculty of English ll student Namozova Sevinch*

*Email: [namozovasevinch1@gmail.com](mailto:namozovasevinch1@gmail.com)*

*Scientific supervisor: Sh.O.Mamayoqubova*

*Email: [mamayoqubovashahlo@gmail.com](mailto:mamayoqubovashahlo@gmail.com)*

**Abstract.** This article discusses the current relevance and uniqueness of the English language and modern and methodical methods of developing the English pronunciation of students who have just started learning English, and the practical

application of these methods, thereby increasing their interest in the English language. opinions on topics such as further improvement are presented.

**Key words.** English language, pronunciation, methodical methods, communication, listening to music , watching movie, Shexter's method.

## **Развивать английское произношение у изучающих английский язык методические методы.**

*СамДЧТИ Иностранный язык и литература  
факультет английского языка 11 студентка Намозова Севинч.*

*Телефон: +998.94.860.23.10.*

*Электронная почта: [namozovasevinch1@gmail.com](mailto:namozovasevinch1@gmail.com)*

*Научный руководитель: Мамаёкубова Ш.О.*

*Электронная почта: [mamatayogubovashahlo@gmail.com](mailto:mamatayogubovashahlo@gmail.com)*

*Телефон: +998937261746*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современная актуальность и уникальность английского языка, а также современные и методические методы развития английского произношения у студентов, которые только начинают изучать английский язык, а также практическое применение этих методов, тем самым повышая их интерес к английскому языку. представлены мнения по таким темам, как дальнейшее совершенствование.

**Ключевые слова.** Английский язык, произношение, методические приемы, общение, прослушивание музыки, просмотр фильмов, метод Шехтера.

Ingliz tili bugungi kunga kelib , xorijiy tillarni , ayniqsa, ingliz tilini o'rganish zamon talabiga aylanib bormoqda . Bu tilning foydalanish doirasi kundan kunga kengayib, jamiyatda o'zining mustahkam o'rmini egallab bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham aynan shu masalada : “ Bundan buyon

bitiruvchilar kamida 2ta tilni bilishlari shart va bu qat'iy talab har bir ta'limga muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim “ , degan fikr - mulohazalarini olg'a surgan. Hattoki aynan manashu masalaga oid qaror ham qabul qilingan. Ya'ni “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida “ 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qaroriga muvofiq , shuningdek xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qiladi. ” Ushbu jumlalar qarorning qisqacha mazmuni.

Talaffuz. Talaffuz bu yangi tilni o'rganish jarayonidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ya'ni biz bu jihatni qanchalik yaxshi o'zlashtirishimiz, bizning bilim darajamizni belgilab beradi. To'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish jarayonida, uning o'rgatish uslublarini tovushning oson yoki qiyinligi bilan baholashimiz mumkin. Talaffuzni rivojlantirish jarayonida reproduktiv shakllantiruvchi mashqlar ancha samarali va foydali bo'ladi. Ya'ni bunday mashqlar chet tilidagi nutqiy birliklarni dastlabki ya'ni birinchi bosqichda talaffuz qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Biz o'rganayotgan chet tilimizda qanchalik tiniq va ravon gapira olsak bu tilni shunchalik muakammal egallab o'z ustimizda qanchalik kop ishlaganimizni bildirib beradi. Aynan manashuning uchun ham talaffuz muhim o'rinni egallaydi.

Metodik uslublar.

To'g'ri talaffuz qilish va talaffuzni rivojlantirish jarayonida turli xil metodik uslublardan foydalanish mumkin. Bunga misol tariqasida Shexter usulini keltirishimiz mumkin. Bu usulning muallifi Igor Yuryevich Shexter hisoblanadi. Bu usulning asosiy jihat shundaki, amaliyot bunda birinchi o'rinni egallaydi. Bunda nazariy bilimlardan ko'ra, so'zlarni amalda qo'llash orqali to'g'ri talaffuz qilishni o'rganish, va aynan xato va kamchiliklarni ham shu orqali bilish mumkin.

Bundan tashqari boshqalarni tinglash orqali yoki bo'lmasa ko'zgu oldida mashq qilish orqali yana ingliz tilida ijro etilgan turli xil musiqalarni tinglash, filmlarni tomosha qilish orqali ham talaffuzimizni yetarli darajada rivojlantirish mumkin.

Musiqa va kinolar. O'z navbatida ingliz tilida musiqalar tinglash, film tomosha qilish ham o'zining foydali natijasini berishi mumkin. Ya'ni bunday usullar orqali biz ingliz tilidagi so'zlarni amalda, nutqda qanday foydalanishini va natijada bulardan to'g'ri foydalanishni o'rganib olishimiz mumkin. Bu kabi usullardan foydalanish albatta o'z samarasini beradi !

Xulosa qilib aytgанд, xorijiy tillarni ayniqsa ingliz tilini o'rganish bugungi zamon talabi bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ingliz tilini o'rganish, uning har bir nutqiy birliklarini , undagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qila olish va bu qobiliyatni rivojlantirish, ingkiz tilida to'liq, ravon gapirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar:**

1. cyberleninka.ru . Xaydarova .Z.S

(Toshkent shahar yuridik texnikumi umumta'lim fanlar kafedrasi o'qituvchisi) “Ingliz tilini o'rgatishning zamonaviy usullari. “

2. www.gazeta.uz

3. lex.uz . – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida” gi qarori.

4. cyberleninka.ru – Jumayeva.M. B (Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi) “ Ingliz tilida talaffuzni shakllantirish tamoyillari”

5. fledu.uz – Komila Inog'omova O'zJDTU , Media va kommunikatsiya fakulteti talabasi.